



TARBIYA DARSLARIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA HADISLARNING TA'LIMIY-POTENSIAL AHAMIYATI

Axmedov Boburjon Vasikovich,

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Boshlang'ich
ta'lim pedagogikasi kafedrası o'qituvchisi.*

<https://orcid.org/0009-0000-5274-8916>

E-mail: boburjonahmedov993@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiya fanida ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish jarayonida hadislarining ta'limiy-potensial ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Global jarayonlar, innovatsion jamiyat talablari va yoshlar tarbiyasini davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlash sharoitida hadislarining tarbiyaviy funksiyasi, ularning o'quvchi-yoshlarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy merosining pedagogik ahamiyati, hadislarining "Tarbiya" fanidagi qo'llanish imkoniyatlari hamda o'quvchilar ma'naviy kamolotiga ta'siri ilmiy-metodik yondashuvlar asosida asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ta'lim-tarbiyada hadislar asosida shakllantiriladigan tayanch fazilatlarining o'quvchilar ijtimoiy-pedagogik rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy tarbiya, hadis, tarbiya fani, innovatsion jamiyat, yoshlar tarbiyasi, pedagogik mexanizmlar, ma'naviy meros.

ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ЗНАЧЕНИЯ ХАДИСА В РАЗВИТИИ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НАУКЕ О ВОСПИТАНИИ

Аннотация. В данной статье научно анализируется образовательный и воспитательный потенциал хадисов в развитии духовно-нравственного воспитания в процессе преподавания предмета «Тарбия». В условиях глобализации, инновационного развития общества и повышения роли молодежной политики раскрывается воспитательная функция хадисов, их значение в формировании нравственных качеств учащихся. Особое внимание уделено педагогической ценности наследия Имама аль-Бухари и Имама ат-Термизи, возможностям применения хадисов на уроках воспитания и их влиянию на духовное становление школьников. Результаты исследования показывают, что система воспитания, основанная на хадисах, способствует формированию у учащихся ключевых качеств и повышает эффективность духовно-нравственного развития.



Ключевые слова: *Духовно-нравственное воспитание, хадисы, предмет «Воспитания», инновационное общество, воспитание молодежи, педагогические механизмы, духовное наследие.*

THE EDUCATIONAL-POTENTIAL SIGNIFICANCE OF HADITHS IN DEVELOPING SPIRITUALMORAL EDUCATION IN UPBRINGING LESSONS

Abstract. *This article presents a scholarly analysis of the educational and moral potential of hadiths in fostering spiritual and ethical upbringing within the “Tarbiya” (upbringing) curriculum. In the context of globalization, rapid societal development and the increasing importance of youth policy, the pedagogical function of hadiths and their role in shaping students’ moral qualities are examined. Special attention is given to the pedagogical significance of the legacy of Imam al-Bukhari and Imam at-Tirmidhi, the integration of hadiths into moral education classes, and their impact on students’ spiritual development. The findings indicate that a values-based educational approach grounded in hadiths effectively contributes to students’ moral formation and enhances the overall quality of spiritual-ethical education.*

Keywords: *spiritual and moral education, hadiths, upbringing science, innovative society, youth upbringing, pedagogical mechanisms, cultural heritage.*

Kirish (Introduction). O‘zbekistonning “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” strategiyasi ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Globallashuv, innovatsion iqtisodiyot, raqamli jamiyatning shakllanishi yoshlar oldiga yangi talablarni, xususan, tezkor fikrlash, intellektual salohiyat, ijtimoiy mas’uliyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatni qo‘ymoqda. Shunday sharoitda tarbiya fanining mazmunini takomillashtirish, unda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning ustuvorligini kuchaytirish muhim ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, mamlakatimiz kitob fondlarida saqlanayotgan qo‘lyozmalar - xususan hadis ilmi - bugungi avlod tarbiyasida beqiyos ahamiyatga ega ma’naviy manbadir.¹⁷ Hadislar yoshlarni axloqiy barkamollikka yetaklaydigan, ular ongida vatanparvarlik, halollik, bag‘rikenglik, adolat va murosallilik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan asosiy pedagogik resurs hisoblanadi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida o‘rta va yuqori sinflarda ma’naviy-axloqiy tamoyillarni shakllantirishning ilmiy asoslari belgilangan bo‘lib, hadislar ana

¹⁷ Mirziyoyev SH.M. “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” -T.; O‘zbekiston, 2018. – 164 b.



shu jarayonning mazmuniy asosini tashkil etadi. Bu jihatlar tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.¹⁸

Tadqiqot metodologiyasi (Methods). Ushbu tadqiqot quyidagi ilmiy metodlarga tayandi:

- **Tahlil va sintez** - hadislarning mazmuni, tarbiyaviy g'oyalari va ularning tarbiya fani bilan uyg'unligini aniqlash;
- **Pedagogik-komparativ yondashuv** - zamonaviy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya tajribalarini xalqaro amaliyot bilan taqqoslash;
- **Nazariy modellash** - hadislarni tarbiya darslariga integratsiya qilishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish;
- **Kontent tahlil** - Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy va boshqa muhaddislar asarlaridagi tarbiyaviy g'oyalarni ilmiy jihatdan tahlil qilish.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari hadislarning tarbiya fanidagi ta'limiy-potensial imkoniyatlarini quyidagicha aniqladi:

1. Axloqiy ongni shakllantirish

Hadislar o'quvchilarning yaxshilik-yomonlikni ajrata bilishi, o'zini boshqara olishi, odob me'yorlariga rioya etishi kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

2. O'z-o'zini tarbiyalash kompetensiyasini kuchaytirish

Hadis o'qish jarayonida o'quvchi o'z xatti-harakatlarini baholash, xulq-atvorini tartibga solish, ichki mas'uliyatni anglash kabi fazilatlarni egallaydi.

3. Ijtimoiy moslashuv va kommunikativ madaniyatni rivojlantirish

Muomala odobi, bag'rikenglik, kattalarga hurmat, tengdoshlar bilan hamjihatlik haqidagi hadislar ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi.

4. Vatanparvarlik va fuqarolik ongini mustahkamlash

Hadislar orqali milliy g'oya, jamiyatga sadoqat, Vatanga muhabbat, fidoyilik kabi fazilatlar shakllanadi.

5. Tarbiya darslarida samaradorlikka erishish

Hadislar dars jarayoniga singdirilganda o'quvchi faolligi, ichki motivatsiya, ma'naviy qiziqish oshadi. To'garaklar, mustaqil o'qish va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham yuqori natija beradi.

Muhokama (Discussion). O'quvchi-yoshlar ma'naviy tarbiyasida hadislarning qo'llanilishi yuqori pedagogik samaradorlikka ega bo'lishi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, hadislar axloqiy me'yorlarning hayotiy, amaliy misollar orqali yetkazilishi bilan dars jarayonini mazmunan boyitadi. Ikkinchidan, ular yoshlarning ongiga bevosita ta'sir qiladigan ruhiy-ma'naviy kuchga ega bo'lib, tarbiya fanida motivatsion omil sifatida xizmat qiladi.

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 1059-son qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., -son.

Shuningdek, oila, maktab, mahalla hamkorligida hadislar asosidagi tarbiyaviy faoliyatni yo'lga qo'yish yoshlar ijtimoiy faolligini oshiradi. Imom al-Buxoriy va Imom at-Termiziy merosi asosida yaratilgan tarbiyaviy modellar o'quvchilarning axloqiy dunyoqarashini shakllantirishda mustahkam asos bo'ladi.

Mazkur tadqiqot natijalari hadislarining tarbiya fanida asosiy pedagogik resurs sifatida qo'llanishi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning samarali va zamonaviy yo'nalishlaridan biri ekanini isbotlaydi.

Xulosa. Hadislarining tarbiya fanida qo'llanishi o'quvchi-yoshlar ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ular o'z-o'zini tarbiyalash, axloqiy ongini rivojlantirish, ijtimoiy faollikni oshirish va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarbiya darslarida hadislarining ilmiy asoslangan metodlar orqali qo'llanishi yoshlarning komil inson bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar (References)

1. Mirziyoyev SH.M. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" -T.; O'zbekiston, 2018. / 164 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 1059-son qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., -son.
3. Tarbiya fani. Baxt va muvaffaqiyat sirlari. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. Toshkent «O'zbekiston» 2020.
4. Imom al-Buxoriy. "Al-Jome' as-Sahih" asari.